6. Болтаев М.Ж. Марказий Осиё давлатлари иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.:"Университет", 2003.
7. Пардаев Ғ.Р. Марказий Осиё мамлакатлари иқтисодий ва ижтимоий география. "Университет" нашриёти. Ангрен., 2003.
8. Qayumov A, Pardayev G'. Islomov I. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). T.: BLOK KLAS SERVIS. 2015.


**Qo'shimcha adabiyotlar:**


9. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-"O'zbekiston" 2016. 56b
10. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. Toshkent- "O'zbekiston" 2016. 488 b
11. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent- "O'zbekiston" 2017. 48 b
12. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tarib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliaytining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent- "O'zbekiston" 2017. 104 b
13. Асанов Г.Р., Набихонов М., Сафарова И., Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси. Т.: "Ўқитувчи", 1994.
14. Аманов З.М., Абдурахмонов А. Ўзбекистон Республикаси вилоятлари, Қорақалпоғистон. Т.: 1995.
15. Ахмедов.А., Сайдаминова З. Ўзбекистон Республикаси (қисқача маълумотнома). "Ўзбекистон", 2006.
16. Тўхлиев Н. ва бошқалар. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Т.: 2006.


**Internet saytlari**

17. www. tdpu. uz
18. www. pedagog. uz
19. www.ziyonet. Uz
20. www.lex.uz;
21. www.bilim.uz;
22.www.gov.uz;



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

| | |
|---|---|
| Ro'yxatga olindi: | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi |
| BD-5111300-2.05 | |
| 201*8*-yil "*3*" *03* | 201*8*-yil "*27*" *03* |

# MARKAZIY OSIYO GEOGRAFIYASI

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 –Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5111300 – Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha)

**TOSHKENT-201*8***

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 27 03 dagi 274 -sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil 3 03 dagi 1. - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Islomov I. - "Geografiya o'qitish metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

Mo'minov D – Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti, "Geografiya o'qitish metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchi, g.f.n.

Nuralieva Z. - 1-Respublika Tibbiyot kolleji "Amaliy geografiya" fani o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv – uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2017-yil "21" 12 dagi 5 -sonli bayonnomasi).



Seminar mashg'ulotlar multemidia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem. Guruhda alohida o'tiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Mavzularini yoritishda suhbat, "B|B|B" str., klaster, tuchuntirish, munozara, kichik guruhlarda ishlash, kuzatish va qiyosiy-tanqidiy tahlil metodlardan foydalaniladi.

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Markaziy Osiyo siyosiy xaritasini shakllanishini o'rganish.
2. Markaziy Osiyo tabiiy resurslarining iqtisodiyotdagi ahamiyati.
3. Markaziy Osiyo aholisi etnik tarkibi.
4. Markaziy Osiyo iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy bosqichlari
5. Markaziy Osiyo iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi.
6. Markaziy Osiyo sanoatining asosiy markazlari.
7. Markaziy Osiyoning asosiy qishloq xo'jalik mintaqalari.
8. Markaziy Osiyo temir va avtomobil yo'llari iqtisodiyotidagi ahamiyati.
9. Markaziy Osiyodagi har bir davlatga tabiiy geografik va iqtisodiy geografik ta'rif berish.
10. Markaziy Osiyoda tabiiy chegaralarini o'tkazishdagi muammolar.
11. Markaziy Osiyo iqlimiga insonning ta'siri.
12. Markaziy Osiyo daryolarida suv rejimining o'zgarishi.
13. Markaziy Osiyo tuproqlarini zonal o'zgarishi.
14. Markaziy Osiyo o'simliklari qoplamini himoya qilish.
15. Markaziy Osiyo hayvonot dunyosi himoya qilish.
16. Markaziy Osiyo tabiat zonalarida qishloq xo'jaligi ekinlarining hududiy tarqalishi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar


1. Rodrigue, J-P (ed). The Geography of Transport Systems. UK, London: (2013).
2. Royal Berglee. Worid Regional Geography: People, Places and Globalization. Morehead State University. 2012
3. Алимов Р.М. Арифхонов Ш.Р. и др. Центральная Азия: геоэкономика, геополитика, безопасност. Т.: "Шарк" 2002.
4. Баратов П, Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. (Ўкув қўлланма) Тошкент.: Ўқитувчи, 2002.
5. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" 8-10-11 сонлар. Т.: 2006.

Markaziy Osiyoning tabiiy chegaralarini yozuvsiz xaritaga tushirish va tahlil qilish. Markaziy Osiyo tabiiy xaritasining nomenklaturasini o'rganish.

**Markaziy Osiyo iqlim va ichki suvlar xaritasi**

Markaziy Osiyo iqlim xaritalarini o'rganish va ularni yozuvsiz xaritaga tushirish va tahlil qilish. Markaziy Osiyo daryolari va ko'llari jadvalini tuzish va ularni yozuvsiz xaritada tasvirlash va tahlil qilish.

**Markaziy Osiyo organik dunyosi**

Markaziy Osiyo tuproqlari xaritasini tuzish va tahlil qilish. Markaziy Osiyo o'simliklari xaritasini tuzish va tahlil qilish. Markaziy Osiyo hayvonot dunyosi jadvalini tuzish va uni xaritada tasvirlash.

**Markaziy Osiyo aholisi**

Aholi va mehnat resurslarining ishlab chiqarish taraqqiyotidagi roli. Aholi dinamikasi va mehnat resurslari. Aholining son jihatdan ko'payishi. Aholining demografik va ijtimoiy tarkibi. Aholi migratsiyasi. Aholining hududiy joylashishi.

**Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti**

Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi sxemasini tuzish va tahlil qilish. Markaziy Osiyo iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy bosqichlarini o'rganish. Markaziy Osiyo davlatlari sanoatning asosiy markazlarini aniqlash va ularga ta'rif berish. Markaziy Osiyoning asosiy qishloq xo'jalik mintaqalarini ajratish.

**Qozog'iston Respublikasi**

Qozog'iston Respublikasi siyosiy-ma'muriy tuzulishi, chegaralari, viloyatlari va ularni yozuvsiz xaritalarga tushirish va tahlil qilish. Qozog'iston Respublikasi tabiiy boyliklarini tahlil qilish.

**Qirg'iziston Respublikasi**

Qirg'iziston Respublikasi siyosiy-ma'muriy tuzulishi, chegaralari, viloyatlari va ularni yozuvsiz xaritalarga tushirish va tahlil qilish. Qirg'iziston Respublikasi tabiiy boyliklarini tahlil qilish.

**Tojikiston Respublikasi**

Tojikiston Respublikasi siyosiy-ma'muriy tuzulishi, chegaralari, viloyatlari va ularni yozuvsiz xaritalarga tushirish va tahlil qilish. Tojikiston Respublikasi tabiiy boyliklarini tahlil qilish.

**Turkmaniston Respublikasi**

Turkmaniston Respublikasi siyosiy-ma'muriy tuzulishi, chegaralari, viloyatlari va ularni yozuvsiz xaritalarga tushirish va tahlil qilish. Turkmaniston Respublikasi tabiiy boyliklarini tahlil qilish.

**O'zbekiston Respublikasi**

O'zbekiston Respublikasi siyosiy-ma'muriy tuzulishi, chegaralari, viloyatlari va ularni yozuvsiz xaritalarga tushirish va tahlil qilish. O'zbekiston Respublikasi tabiiy boyliklarini tahlil qilish.

**O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va iqtisodiy rayonlari**

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va iqtisodiy rayonlarining iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiyot tarmoqlari tarkibi, rivojlanish darajasi.



## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

«Markaziy Osiyo» atamasi mohiyati, Markaziy Osiyoning chegaralari, o'lchamlari, geografik o'rni, qo'shni mamlakatlar bilan tarixiy geografik yaqinligi, tabiiy–resurs va demografik salohiyati. Hozirgi vaqtdagi siyosiy–iqtisodiy xolati, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari–Markaziy Osiyoning muhim siyosiy–iqtisodiy geografik sub'ektlari sifatida, Markaziy Osiyo respublikalarining geografik tavsifi, rivojlanish muammolari va istiqbollari, tashqi iqtisodiy aloqalari va iqtisodiy rayonlari.

«Markaziy Osiyo geografiyasi» matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. "Markaziy Osiyo geografiyasi" fani aniq va tabiiy fanlar turkumiga kiradi. Predmetlararo bog'lanishni to'g'ri amalga oshirish uchun o'qituvchi Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olishi juda muhimdir.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan **maqsad** – Markaziy Osiyo tabiiy sharoiti va iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari xamda mazkur o'lkada joylashgan mamlakatlar xaqida bilimlar berishdir.

Fanning **vazifasi** – «Markaziy Osiyo» tushunchasining mohiyati, mazmuni, chegaralari haqida bilimlar berish; Markaziy Osiyoning geologik tuzilishi, Yer yuzasining asosiy shakllari, iqlimi, ichki suvlari, tuproq va o'simlik qoplami hamda hayvonot dunyosi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; Markaziy Osiyoning tabiiy resurslari, ularning turlari, ulardan foydalanish darajasi, tabiatini muxofaza qilish, mintaqadagi asosiy qo'riqxonalar va ularning faoliyati xaqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; Markaziy Osiyo aholisi, uning joylashishi, tarkibi, urbanizatsiya darajasi xaqida bilimlar berish; Markaziy Osiyo iqtisodiyot tarmoqlarinig tuzilishi, joylanishi va rivojlanish xususiyatlari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitining asosiy xususiyatlarini ochib berish.

"Markaziy Osiyo geografiyasi"ni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Markaziy Osiyo aholisining joylashishidagi asosiy qonuniyatlar va sabablari;
- iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini xududlar bo'yicha joylashishidagi muammolari;
- Markaziy Osiyoda joylashgan har bir davlat geografik sharoitining asosiy xususiyatlari ***haqida tasavvurga ega bo'lishi***;
- fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, Markaziy Osiyo sharoitining asosiy xususiyatlari, er yuzasining tuzilishi, iqlimi, ichki suvlari, organik dunyosi, aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarini ***bilishi va malaka hosil qilish***;

- Markaziy Osiyoning tabiiy va ma'muriy chegaralarini xaritada tasvirlay olish;

- Markaziy Osiyo relefining asosiy shakllarini qanday joylashganligini xaritada aniqlash;

- Markaziy Osiyoning turli qismlarida iqlimining o'zga xos xususiyatlarini;

- tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida kelib chiqadigan geoekologik muammolar va ularning sabablarini tushuntirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;***

## III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

## 1-Modul. Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy geografiyasi

### 1-mavzu. Kirish.

Fanning maqsadi va vazifalari. Markaziy Osiyo tushunchasi. Markaziy Osiyoning geografik o'rni; tabiiy geografik o'rni, iqtisodiy geografik o'rni, siyosiy geografik o'rni. Markaziy Osiyo xaritasining shakllanishidagi asosiy bosqichlar. Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlar. Markaziy Osiyoni geografik o'rganilish tarixi. Markaziy Osiyoning tabiiy geografik sharoiti. Geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi. Rel'efi; tog'lari, tog' oralig'i vodiylari, tekisliklari; cho'llar, platolar, qirlar.

### 2- mavzu. Iqlimi va ichki suvlari

Iqlim hosil qiluvchi omillar. Issiqlikning yoz va qishda taqsimlanishi. Yog'inlar va ularni tanqislanishidagi o'ziga xos xususiyatlari. Shamollar va ularning turlari. Fasllar (yoz, kuz, qish, bahor). Iqlim mintaqalari va turlari. Daryolari; joylanishi, to'yinish me'yori, inson tomonidan foydalanishi. Yirik kanallar: Qoraqum, Katta Farg'ona, Amu-Buxoro, Quyi Amudaryodagi kanallar. Sibir daryolarining bir qismini Markaziy Osiyoga olib kelish muammosi. Daryolarning ifloslanishi va ularni muhofaza qilish. Ko'llar. Joylanishi va turlari. Oqar va oqmas ko'llari. Yirik ko'llar ta'rifi (Orol, Balxash, Issiqko'l va h.k). Orol va Orol bo'yi muammosi. Muzliklar va ularning tarqalishi. Yirik muzliklar. Yer osti suvlari va ulardan foydalanish. Suv omborlari.

### 3- mavzu. Tabiat zonalari

Har bir tabiat zonasining tuproq, o'simlik qoplami va hayvonot dunyosi (dasht, chala cho'l, cho'l). Tog'larda tuproq o'simlik qoplami va hayvonot dunyosini balandliklar bo'yicha tarqalishi. Markaziy Osiyo tabiatini muhofaza qilish. Inson tomonidan tabiatni o'zaro tiriltirish, madaniy landshaftlar, qo'riqxonalar buyurtmalar, xalq bog'lari.

### 4- mavzu. Markaziy Osiyoning tabiiy resurslari

Tabiiy resurslar va ularning turlari haqida tushuncha. Agroiqlimiy resurslar va ularning qishloq xo'jaligini rivojlanishiga ta'siri va ulardan foydalanish darajasi. Yerlarning sho'rlanishi, shamol va suv eroziyasi. Mineral resurslari, ularning turlari va joylanishi; yoqilg'i-energetika foydali qazilmalari, metalli



foydali qazilmalar (qora va rangli), nometall foydali qazilmalar, qurilish xom-ashyosi. Mineral resurslarni qazib olish jarayonida atrof-muhitning o'zgarishi va uni muhofaza qilish muammolari. Suv resurslari va ulardan foydalanish darajasi. Suv resurslarini ifloslanish va ularni muhofaza qilish. Biologik resurslari. O'rmonlar, yaylovlar, ovlanadigan hayvonlar. "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik va hayvon turlari. Rekreatsiya va turizm resurslari. Ularning turlari va ulardan foydalanish darajasi: tabiiy, tarixiy, madaniy rekreatsiya ob'ektlari.

## 2-Modul. Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografiyasi

### 5- mavzu. Markaziy Osiyo aholisi

Aholining soni, joylashishi, zichligi, milliy tarkibi. Aholi ko'paishining o'ziga xos xususiyatlari. Migratsiya va uning 1990-yildan so'ngi siyosiy oqimi. Urbanizatsiya darajasi: yirik shaharlar, shaharlar, qishloqlar.

### 6- mavzu. Markaziy Osiyoning iqtisodiyoti

Markaziy Osiyoning iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari. Rivojlanish tarixi. Sanoatda: yoqilg'i-energetika sanoati; metallurgiya sanoati (qora va rangli) markazlari; kimyo sanoati va uning asosiy tarmoqlari rivojlangan hududlar; mashinasozlik sanoati (avtomobilsozlik, stanoksozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi va h.k.); Yengil, oziq-ovqat va mahalliy sanoat. Qishloq xo'jaligi va uning joylanishidagi asosiy xususiyatlar: donchilik, paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, tamakichilik, chorvachilik (qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, parrandachilik, baliqchilik va h.k.). Asosiy qishloq xo'jalik mintaqalari. Transporti: quruqlik transporti (temir yo'l, avtomobil, quvur), havo, suv transporti. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

## 3-Modul. Markaziy Osiyo davlatlari

### 7- mavzu. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari

Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalarining tashkil topish tarixi. Geografik joylanishi. Tabiiy resurslari, aholisi, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Hududiy tafovutlari.

### 8- mavzu. O'zbekiston Respublikasi

Tashkil topish tarixi. Geografik joylanishi. Tabiiy resurslari, aholisi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari. Iqtisodiy rayonlari.

## IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

### Markaziy Osiyo siyosiy xaritasi

Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy-ma'muriy xaritasini yozuvsiz xaritaga tushirish va tahlil qilish.

### Markaziy Osiyoning tabiiy xaritasi